


SIRDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar oyi)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 182,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 13,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,1 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 168,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 1,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 15,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 %ga ko'paygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (67,3 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (30,9 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (17,1 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (14,9 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasining o`rish sur`atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga ko`paydi va 13,5 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,4 % ulushiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 168,7 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 1,2 % ga o`sdi. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,6 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi 2015 yil yanvar oyi 92,8 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2019 yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulushi 92,6 % ga yetdi. Kichik tadbirkorlik yaratilgan imkoniyatlar o'z natijasini bermoqda.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Sardoba (99,4 %), Guliston (99,2 %), Xovos va Oqoltin (99,0%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 7,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Sayxunobod (27,2 %), Guliston shahrida (11,3 %) va Yangiyer shahri (6,7 %) kuzatilgan.

**Chakana savdo aylanmasi va kichik tadbirkorlikning
tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	182,2	101,3	168,7	101,2
Guliston sh.	67,3	98,5	59,8	101,7
Shirin sh	2,8	100,5	2,8	101,3
Yangiyer sh	17,1	101,8	16,0	100,3
tumanlar:				
Boyovut	10,0	98,4	9,5	100,3
Guliston	7,1	101,3	7,0	101,4
Mirzaobod	14,9	101,4	14,4	101,3
Oqoltin	8,9	100,2	8,8	100,2
Sardoba	7,9	100,7	7,8	101,0
Sayxunobod	8,2	134,9	6,0	101,8
Sirdaryo	30,9	102,0	29,5	101,2
Xovos	7,1	100,2	7,1	100,6

Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar oyi (%)



2019 yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 221,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 % ga kamaygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar oyida o'tgan yilga nisbatan o'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (760,0 ming so'm), Yangiyer shahri (407,0 ming so'm) va Sirdaryo tumanida (247,5 ming so'm) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xovos tumanida (76,8 ming.so'm), Boyovut tumani (79,1 ming.so'm) va Guliston tumanida (101,2 ming so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	221,4	99,6
Guliston sh.	760,0	97,7
Shirin sh	152,2	100,0
Yangiyer sh	407,0	100,0
tumanlar:		
Boyovut	79,1	96,7
Guliston	101,2	100,0
Mirzaobod	210,8	99,3
Oqoltin	176,3	98,6
Sardoba	123,2	98,8
Sayxunobod	109,4	132,6
Sirdaryo	247,5	100,6
Xovos	76,8	98,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 8,4 %ni tashkil etib, 15,3 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


SIRDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar oyi)

Yanvar oyi viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 84,7 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 6,3 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, 58,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 68,6 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer va Shirin shahrida (100,0 %) va Sirdaryo tumanida (91,0 %) yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019 yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, 26,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,8 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 31,4 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (92,9 %), Xovos tumanida (92,5 %) va Oqoltin tumanida (76,5 %) yuqori bo'lgan.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	84,7	106,3	26,6	116,8	58,1	102,1
Guliston sh.	42,2	108,6	15,0	123,0	27,2	101,9
Shirin sh	-	101,8	-	-	-	101,8
Yangiyer sh	1,7	57,6	-	-	1,7	101,8
tumanlar:						
Boyovut	1,8	65,3	1,3	58,0	0,5	102,2
Guliston	2,0	130,1	1,2	159,9	0,8	100,9
Mirzaobod	5,8	127,2	1,3	6,4m	4,5	102,9
Oqoltin	1,6	195,3	1,2	2,7m	0,4	100,9
Sardoba	1,3	54,5	1,2	52,7	0,1	102,0
Sayxunobod	4,3	100,2	1,3	98,8	3,0	100,8
Sirdaryo	21,7	103,3	2,0	112,9	19,7	102,5
Xovos	2,3	5,9m	2,1	9,7m	0,2	102,8

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (49,9 %), Sirdaryo tumanida (25,6 %), Mirzaobod tumanida (6,9 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-86-34